

PESHKU TUMAN AXBOROT- KUTUBXONA MARKAZI
AXBOROT- BIBLIOGRAFIYA XIZMATI

MOZIYDAN TARALGAN ZIYO



(ABU ALI IBN SINO MUZEYINING (1980) 46 YILLIGIGA BAG'ISHLAB)

YO'L KO'RSATKICH

PESHKU-2026

Yo'l ko'rsatkich Axborot-bibliografiya xizmati tomonidan tuzildi

Tayyorladi: B. Safarova

Muharrir: M.Norova



Abu Ali al-Husain ibn Abdulloh ibn Sino – Buxoro yaqinidagi qadimiy Afshona qishlog'ida 980-yilda tug'ilgan, 1037-yilda esa Hamadonda olamdan o'tgan. Qisqartirilgan nomi Ibn Sino, lotinchadagisi – Avitsenna serqirra tabbiyot xodimi, fizik, faylasuf, matematik, astronom, kimyogar va musiqashunos. Bugungi kunda ham dolbzarligini yo'qotmagan "Davolash kitobi" va "Kanun at-tib" kabi mshhur tibbiyot asarlari muallifi. "Tibbiyot fani qonun-qoidalari" mashhur ensiklopediyasi ko'p asrlar davomida tibbiyot bo'yicha qo'llanma bo'lib, Rim, Yunon, Hindiston



va O'rta Osiyo shifokorlarining tajribasi va nuqtai nazarini o'z ichiga olgan. Ibn Sino fan tarixidagi buyuk shaxslardandir. G'arb dunyosida uni Islomiy Sharqining buyuk allomasi deb hisoblashgan. 1980 yilda Buxoro viloyatining Peshko' tumani Afshona qishlog'ida allomaning 1000 yillik yubleyiga bag'ishlab Ibn Sino memorial muzeyiga asos solindi.

Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan "Kitob al-qonun fittibb"("Tib qonunlari), "Kitobul-qulanj"("Ichak sanchiqlari"), "Kitob un-nabz"("Tomir ko'rish haqida kitob"), "Fuj ul-tibbiya joria fi

majlisih” (“Tib haqida hikmatli soʻzlar”), ”Fil-hindubo”(“Sachratqi oʻsimligi haqida”), ”Risola fi-dastur it- tibbiy” (“Tibbiy koʻrsatmalar haqida”) kabilar bizgacha yetib kelgan. Muzeiy zallarida buyuk mutafakkir olim, jamoat arbobi, dunyo madaniyati va ilmiga asos solgan Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodi aks ettirilgan. Uning buyuk ilmiy izlanishlari quyidagi fanlarga asoslangan: Falsafa, tibbiyot, astronomiya, geologiya, matematika, fizika, adabiyot va musiqa. Muzeiy Ibn Sino davrining diniy madaniyati va Buxoroning X -XI asrlarga oid tarixi aks ettirilgan 650 dan ortiq eksponat mavjud.



Muzeiyga tashrif qilganingizda, ciz oʻsha davr tarixiga oid eksponatlarni koʻrishingiz mumkin.

- “Tib qonunlari”ning oltinchi tarjimasini. 1523 yil.
- Abu Rayxon va Muxammad Ibn Axmad al-Beruniy (1075/1666) ning risolalari. Fotonusxa
- Oʻrta asrlarda Sharqda qoʻllanilgan tibbiyot asboblari XI asr. Rekonstruksiya
- Avisena, Galen va Gippokratlar bilan birgalikda oʻtkazilgan tibbiyot darslari”. Miniaturadan nusxa, 1461 y. Parij.
- Oʻrta asrlar dorixonasi va tibbiyot asboblari VII VIII asrlar.
- Suyakdan yasalgan shaxmat donalari. IX-X asrlar
- Zargalik buyumlari X-XI asrlar
- Bronza buyumlari X-XI asrlar
- Afrosiyob, Samarqanddagi Somoniylar saroyi, ganchdan yasalgan maket. X-XI asrlar

Adabiyotlar

Afshona // Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. A-Beshbaliq. Tahrir hayʼati :M. Aminov, B. Ahmedov, H. Boboyev [va boshq.]. – Toshkent : Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – B. 522 – 523.

Hamdamov, Sh. Abu Ali ibn Sino tavallud topgan yurt : esselar / Sh. Hamdamov . – Buxoro : Sadriddin Salim Buxoriy Durдона nashriyoti, 2020. –276 b.

Ergashova, A. Afshonadagi muzeiy:[Peshku tumani Afshona qishlogʻidagi Abu Ali ibn Sino meʼmorial muzeiy haqida] / A. Ergashova // Moziydan sado. – 2014. – № 4. – B 21-22.

Ibrohimov, I. Bebaho ilmiy maros :[Peshkoʻ tuman Afshona qishlogʻidagi Abu Ali ibn Sino meʼmorial muzeiyda “Ibn Sino ilmiy merosi va zamonaviy tibbiyotning dolzarb muammolari” mavzusida xalqaro ilmiy - amaliy konferensiya boʻlib oʻtdi] / I. Ibrohimov // Xalq soʻzi. – 2015 . – 24 noyab.

Axborot-bibliografiya xizmati